



JALOLIDDIN RUMIYNING “FORSIY QUR’ON” YOKI “MA’NAVIY MASNAVIY” ASARIDAGI ILMIY QARASHLAR

Vafoqulova Go‘zal Ochilovna
Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada «Ma’naviy masnaviy» asaridagi hikoyatlar tahlili bilan birga asar mazmun-mohiyatiga to‘xtaladi.

Kalit so‘zlar: Ajab, tarab, maxmur – xumorlik, fikr, ruh erkinligi, ifoda erkinligi, «Forsiy Qur’on», «masnaviyxon».

Rumiyning musulmon olamida mashhur asari «Masnaviy» oldindan o‘ylangan rejaga ega emas. Uning yagona nizomi — erkinlik. Fikr, ruh erkinligi, ifoda erkinligi, holat-kayfiyat erkinligi. Avlodlar «Forsiy Qur’on» deb atagan bu kitobni u oddiygina qilib «Masnaviy» deb atadi. «Masnaviy» — olamni egallashga va o‘z-o‘zini anglashga intilgan inson ruhining taronasi. Asar yozilib, nihoyasiga yetishi bilan uni yodlashga kirishilgan, uni yod bilganlar «masnaviyxon» nomini olgan. «Masnaviy» asosida o‘nlab to‘plamlar, arab, fors, turk tillarida yuzlab jild tahlil va talqinlar bitilgan. Rumi «Masnaviy» asaridagi murakkab falsafiy muhokama va mushohadalarni «Ichindagi ichindadir» asarida ravshan va sodda shaklda tushuntirib bergan. «Masnaviy»da syujet yaxlitligi yo‘q; ammo barcha asarlari yagona kayfiyatda; uning shakli — bir xil ohangdagi qofiyali baytlar.

Masnaviy sharq klassik adabiyotida bir she‘r usulining nomidir. Lug‘at ma’nosi «ikkilik», «ikkitan» demakdir. Adabiyotda bir xil vaznda va har bayti o‘zaro alohida-alohida qofiyalanib kelgan nazm shakliga masnaviy deyilgan. Masnaviy sharq she‘riyatining bir she‘riy yo‘nalishi bo‘lsada, masnaviy deyilganda odatda Mavlononing «Masnaviy»si ko‘z oldimizga keladi.

Parvardigori olamga sig‘inish, Undan madad olish, U sari intilish mavjud. Rumiyning «Ichindagi ichindadir» («Fiyhi ma fiyhi») asarida keltiriladi: «Bir kun bir yig‘inda va‘z o‘qilardi. Musulmonu kofir hamma yig‘lar, turli ahvolga tushardi. Birov: «Kofirlar nega yig‘lashadi, ustiga ustak tilni bilishmaydi. Musulmonlarning ham mingdan biri arang tushungan va‘zdan ular nimani angelayaptiki, bu qadar yig‘lab siqtashadi? —deb so‘radi. Mavlono buyurdiki: «So‘zning o‘zini tushunishga hojat yo‘q. Ular mohiyatini, maqsadni anglashmoqda. Ular ham Ollohning birligini e’tirof etishadi. Uning Yaratguvchi, Razzoq, hamma narsani o‘z tasarrufida tutuvchi ekanini, nihoyat hamma Unga qaytajagini, avfu jazo undan bo‘lajagini anglashadi».

Mohiyatni tushunmasdan so‘zdagi farqqa qarab o‘zaro ixtilof qilishni Rumi quyidagi rivoyati bilan tushuntirgan: To‘rt millatdan to‘rt kishi— turk, fors, arab va yunon yo‘lda birga ketayotganlarida ularga birov bir dirham pul beradi. To‘rtovlon bir-birining tilini tushunmagani sababli pulga nima sotib olish kerakligi ustida



janjallashib qoladilar. Fors “angur” (uzum) olamiz desa, arab “man angur yemayman, “inab” (uzum) istayman deydi. Turk “uzum” olmiz deb turib olsa, yunonlik “Yo’q, istofil (uzum) yemoqchiman” deb musht o’qталadi. Natijada, ular bir-birini tushunmay, yoqalashib ketadilar. Shu payt “yuz tilni biladigan sirlar sohibi” bir odam yo’liqib, ularning nizosiga quloq solib, pulni qo’llaridan olib, bozordan uzum sotib olib berganida, to’rtalasi ham bir narsani xohlaganini ko’rib hayron qolishadi, istaklari amalga oshib, yarashib ketadilar.

Rumiy ushbu rivoyat bilan nafaqat nomlar, ifodalarning xilma-xilligi ma’no-mohiyatini yashirib, odamlarni adashtirishini anglatish barobarida muhim bir g’oya—Xudoning mohiyatini anglashda insonlarning hushyorligi, aqliy va ma’rifiy kamolotiga asosiy e’tiborni qaratadi.

Shu o’rinda Rumiyan yana bir rivoyatni naql etmoqchimiz. “Ma’naviy Masnaviy”da keltiriladiki, Muso payg’ambar bir yaylovdan o’tayotganida bir cho’ponga duch keladi. Cho’pon Xudoga nola qilib der edi: “Ey Xudojon, sen qayerdasan, kel, sochlaringni tarayin, chorig’laringni tikayin, naki o’z jonim, balki qo’ylarim, farzandlarim ham senga fido bo’lsin. Qayerdasan, borib dastyoring bo’lsam, sut qaymog’im bilan qorningni to’ydirayin, boshing og’risa, boshingni silayin, yuzqo’lingdan o’payin, oyoqlaringni uqalayin...”

Muso buni eshitib, cho’ponni koyiydi: “Ey ahmoq, kofir bo’lding, Xudoning chorig’i ham, to’ni ham yo’q, u yemaydi, ichmaydi, Uni o’zingga o’xshatma. U go’yo quyosh, sen bir chivin...” Cho’pon Musoning bu gapidan qattiq xafa bo’ladi va jimib qoladi. Shunda Parvardigori olamdan Musoga vahiy keladi: “Ey Muso, nima qilding, bandamizni bizdan ayirding, qo’y aytsin, sen bandalarning dilini Parvardigorga ulash uchun yuborilgansan, ajratib tashlash uchun emas. Biz har odamga, har bir elga o’z darajasida, o’z tilida muhabbat izhor etish uchun imkon berdik. Hindlarni hind tilida, sindlarni sind istilohida so’zlatdik.”

Bu rivoyatda ham Rumiya tashqi belgilar, so’zlar shakliga e’tibor qilmaslik, balki so’zning ma’nosiga, samimiyligiga e’tibor berish lozimligini ta’kidlaydi. Cho’ponning so’zlari juda to’pori, sodda. Cho’pon Xudoni o’ziga o’xshatib tasavvur etadi. Ammo uning so’zlari, muhabbati soxta emas, tama’g’arazga asoslanmagan. U bor budini Xudo yo’lida sarflashga tayyor. Albatta yurakdan aytilgan gaplar qanday tilda bo’lmasin aytuvchining sadoqatini ifodalaydi.

Mavlono o’lim kunini ham yangidan tug’ilgan kun sifatida qabul qilardi. U o’lgan zahoti sevganiga, ya’ni, Allohga yetishishini bilardi. Shuning uchun Mavlono o’lim kunini to’y kuni yoki kelin kechasi ma’nosida kelgan so’z «Shabi aruo derdi va do’stlariga o’limi orqasidan *E, voh* deya yig’lamasliklarini vasiyat





qilgandi. «O'lganimizdan so'ng mozorimizni yerdan axtarmang! Bizning mazorimiz oriflar ko'ngillaridadir»! Rumi shaxsiyati va buyuk asari bilan nafaqat Sharq, balki G'arb uchun ham o'lmas yodgorlik yarata oldi. Zero, "Masnaviy" — musulmon olamidagi eng ko'p o'qiluvchi va hurmatga sazovor kitobdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жалолиддин Румий, "Ичиндаги ичиндадур". Бешинчи нашри, "Янги аср авлоди", Тошкент. 2016 йил
2. Rafiyev A va boshq. Ona tili va adabiyot. – T.: 2013. 186-197-betlar

